

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUMINOVA UMIDA QARSHIYEVNA

**ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARI
LEKSIKASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Muminova Umida Qarshiyevna

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari leksikasi..... 5

Muminova Umida Karshiyevna

Лексика произведения "Махбуб ул-кулуб" Алишера Навои 23

Muminova Umida Qarshievna

Lexicon of Alisher Navoi's work "Mahbub ul-Qulub"..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUMINOVA UMIDA QARSHIYEVNA

**ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARI
LEKSIKASI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3281 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.gdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Sodiqov Qosimjon Pozilovich
filologiya fanlari doktori, professor
Ermatov Ixtiyor Rizoqulovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot: Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "14" 09 soat 10 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: gIsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (20 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.:(99867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "28" 08 kuni tarqatildi.
(2024-yil "28" 08 dagi 20 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R. Mamatqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Axrorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
a'zosi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.G. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida Alisher Navoiy asarlari tilining fonetik, leksik, semantik, morfologik, sintaktik jihatlarini mutafakkir ijod namunalari asosida izohli, chastotali, konkordans, qomusiy va mavzuiy lugʻatlar yaratish kabi masalalar yuzasidan izchil izlanishlar olib borilmoqda. Navoiy va sharq xamsanavislik anʼanalari, shoir asarlari tuzilishi, obrazlarning badiiy tahlili, adib hayoti hamda yashagan davr muhiti, uning nazmiy, nasriy, tarixiy, ilmiy-nazariy asarlari adabiy-estetik, lisoniy xususiyatlari doimiy ravishda ilm ahlini qiziqtirib kelayotgan mavzulardan hisoblanadi. Shunday ekan, har qanday lingvistik hodisani tarixiy jihatdan tahlil etish turli davrlarda bitilgan badiiy asarlar tilini qiyoslash, ularning integral va differensial tomonlarini aniqlash muhim sanaladi.

Dunyo tilshunosligida oʻzbek adabiy tilining tom maʼnodagi asoschisi sanalgan Alisher Navoiy qalamiga oid nasr hamda nazmda bitilgan badiiy, tarixiy, ilmiy asarlarning lingvistik xususiyatlari tilshunoslar diqqatini bir necha asrlar mobaynida oʻziga jalb etib kelmoqda. Alisher Navoiy hayoti va ijodi, alloma asarlarining syujeti, badiiy xususiyatlari, shoir asarlari tilida qoʻllanilgan soʻzlar asosida tarjima va izohli lugʻatlar yaratishga bagʻishlangan tadqiqotlarga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Binobarin, Navoiy asarlari leksikasi talqini borasidagi qarashlarni umumlashtirish, tizimga solish hamda mutaxassislar eʼtiboriga havola etish sohasida amalga oshirilgan izlanishlar katta ilmiy-nazariy ahamiyatga molik. Shu maʼnoda, Alisher Navoiyning “Mahlub ul-qulub” asari leksikasini tadqiq qilish dolzarb ilmiy muammolardandir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda navoiyshunos olimlar tomonidan Alisher Navoiy lirik asarlarini turli aspektlarda oʻrganishga alohida urgʻu berildi. Zero, moziyda bitilgan ilmiy, badiiy, tarixiy manbalarni ham diaxron, ham sinxron nuqtayi nazardan tadqiq etish, chunonchi, ularda qoʻllangan rang-barang soʻz boyligini tarixiy-etimologik, funksional-semantik va semantik-stilistik jihatdan tahlil qilish katta oʻrin tutadi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, “...ulugʻ shoir oʻzining sheʼriy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy gʻoyalarni, ona tilimizning beqiyos soʻz boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam joy egalladi”¹. Darhaqiqat, bugungi kunda shoir asarlarining “...oʻsib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbidagi yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulugʻ shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targʻib etish”² dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi qarori // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.

²Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi qarori // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.

tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda 2020-yil 20-oktabrdagi 6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi hamda uning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” deb nomlangan ustuvor yo‘nalishiga muvofiq tarzda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek tilshunosligida Alisher Navoiy asarlari lingvistik jihatdan bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, O.Usmonov, A.Rustamov, E.Fozilov, M.Rahmatillayeva, X.Mamadov, X.Doniyorov, E.Umarov, B.Bafoyev, U.Sanaqulov, A.Karimov, E.Nosirov, Z.Hamidov, M.Yusupov, B.Yusupov, S.Ashirboyev, A.Nishonov, H.Dadaboyev, Q.Sodiqov, I.Azimov, F.Hayitmetov, B.Zaripov, N.Umarova, Sh.Egamova, D.Isaqova, O‘.Islamov, M.Tojiboyeva, D.Abdulxayrov, D.Abduvaliyeva, N.Abduvaliyeva, M.Usmonova, Sh.Xo‘janioyozova, X.Maxamadiyev, M.Rahmatovlar bevosita shoir asarlari til tahlili bilan shug‘ullangan³ bo‘lsa,

³Усманов А. “Мухокамат ул лугатайн” Алишера Навоий. – Ташкент, 1948; Рустамов А. Некоторые грамматические особенности языка “Махбуб ул-кулуб” Алишера Навоий. Автореф. дисс. ... канд.фил.наук. – Ташкент, 1959; шу муаллиф. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои. Автореф. ...дисс. докт.фил.наук. – Ташкент, 1966; шу муаллиф. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1979; Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент: Фан, 1965, шу муаллиф. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий. – Тошкент: Фан, 1969; Умаров Э. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов дивана “Хазойин ул маоний” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Л.: 1968; Ўша муаллиф. Ўзбек тилида тил олди товушлари борми? // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. № 4-5-6. – Б. 77-80; Яна ўша муаллиф. Алишер Навоий унли ва ундошлар ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. №1. – Б. 32-35; Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в лирике Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1965; Мамадов Х. Алишер Навоий бадий прозасининг лексик-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1969; Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: номидаги адабиёт ва санъат, 1972; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент: 1968; Шу муаллиф. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Санакулов У. Исследование памятника XV века “Мухокамат ул лугатайн” Алишера Навоий. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1971; Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы “Фархад и Ширин” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1974; Насыров И.Лексика “Маджалис ан-нафаис” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1980; Ҳамидов З. Лексико-семантические и лингвопоэтическое исследование языка “Лисон ат-тайр” Алишера Навои. Автореф. ...дисс. канд.фил.наук. – Ташкент, 1982; Юсупов М. Алишер Навоий насрий асарларида изофали бирикмалар. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1984; Юсуфов Б. Местоимение в староузбекском литературном языке (XV-XVI вв). Автореф. ...дисс.канд.фил.наук. – Ташкент, 1988. – С. 24; Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг маъно ва таркибий хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1990.

G'.Abdurahmonov⁴, Sh.Shukurov, M.Qodirov kabi olimlar o'zlarining ilmiy ishlari doirasida bilvosita shoir asarlari tilini tadqiq etishgan. Shubhasiz, ularning tadqiqot ishlari o'zbek navoiyshunosligi rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, "Mahbub ul-qulub" asarida so'z boyligi tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiya mavzusi esa navoiyshunoslikning til ilmida ilk bor o'rganilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari lug'at tarkibini semantik va genealogik jihatdan tahlil qilish orqali uning o'zbek adabiy tili rivojida tutgan o'rini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asar lug'at tarkibini funksional-semantik jihatdan turli mavzuiy guruhlariga ajratgan holda tadqiq etish orqali leksemalarning tarixiy taraqqiyotini ochib berish;

leksik birliklarini genealogik jihatdan o'rganish natijasida XV asr uchun xarakterli bo'lgan so'zlarni aniqlash hamda o'z va o'zlashma qatlamga doir leksemalarning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;

arab va fors tillaridan kirib kelgan leksemalarning turkiy affikslar bilan birikib yangi so'zlar yasashdagi o'rini isbotlash hamda ayrim o'zlashmalar etimologiyasiga oydinlik kiritish;

manbada qayd etilgan leksik birliklar bilan qadimgi va eski turkiy tilning ilk obidalari, hozirgi o'zbek adabiy tili hamda shevalardagi so'zlarni qiyosiy o'rganish yordamida ularning mushtarak va farqli tomonlarini ko'rsatib berish;

Б. 330.; Нишонов А. Навоий тилидаги арабизмларнинг фонетик-морфологик ва лексик-семантик таҳлили (Фонетико-морфологический и лексико-семантический анализ арабизмов языка Навои): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1990; Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бир бош бўлакчи гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2000; Зарипов Б. Зоонимларнинг бадий санъат турларини ҳосил қилишдаги иштироки (Алишер Навоий асарлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002; Тожибоева М. Алишер Навоийнинг "Илк девон"идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. -Б. 175; Дадабоев Х. Алишер Навоийнинг киноя шеърини санъатини қўллаш маҳорати. Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: 2021. – Б. 149-155; Содиков Қ. "Муҳокамат ул луғатайн"ни ўқиб ўрганиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011; Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексик қатлам. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Исақова З. Алишер Навоийнинг "Мажолис ун-нафоис" асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2010; Исламов Ў. Алишер Навоий асарларида нутқ маданияти талқини: Филол. фан. номз... дисс – Тошкент, 2011; Абдулхайров Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 2016; Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2017. Б. 48.; Усмонова М. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2022. – 173 б.; Хо'janioyozova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. – Toshkent, 2022. – B. 54.; Махаммадиев Х. Алишер Навоий "Хамса" дostonларидаги маиший Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс – Тошкент, 2022. – 142 б.; Rahmatov M. Alisher Navoiy lirikasining sintaktik-semantik va kommunikativ xususiyatlari. Filologiya fanlari. doktori (DSc). ... avtoref. – Toshkent, 2023. – 72 b.

⁴Абдурахмонов Ғ. Тарихий синтаксис. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 75; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б.160; Шукуров Ш. Эски ўзбек тили унлилари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1994. №4-5-6. – Б. 22-25; Абдурахмонов Ғ. Шукуров Ш. Ўзбек тили тарихининг ўрганилиши// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1982, – № 5. – Б. 36-41.

pandnoma soʻz boyligining polisemantik xususiyatlari, semantik oʻzgarishlar, maʼno torayishi va maʼno kengayishi hodisalarining yuzaga kelish omillarini aniqlash;

manbadagi soʻzlarning stilistik xususiyatlari, xususan, metafora, metonimiya, sinekdoxa singari maʼno koʻchimlarini tahlil qilish vositasida muallifning soʻz qoʻllash mahoratini yoritish;

asar lugʻat fondida sodir boʻlgan leksik-semantik jarayonlar (omonimiya, sinonimiya, antonimiya)ni oʻsha davrdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diniy, madaniy omillar bilan bogʻliq holda dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari leksikasini funksional-semantik, tarixiy-etimologik va semantik-stilistik aspektlarda tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarixiy leksikologiyaning nazariy qoidalariga tayangan holda pandnomadagi soʻzlar ijtimoiy-siyosiy, maishiy leksika, taʼlim-tarbiya, teonimlar, zoonimlar, fitonimlar kabi oʻttiz toʻrtta yirik mavzuiy guruhga ajratilib asarning oʻzbek tili tarixiy taraqqiyoti va adabiy til sifatida shakllanishida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, oʻzbek xalqining moddiy-maishiy turmush tarzi, turar joy, uy-roʻzgʻor tutumi, diniy, madaniy-maʼnaviy, iqtisodiy jihatlarning oʻrni asoslangan;

pandnoma lugʻat boyligidagi soʻzlarning genezisi, manba tilining maʼno kengayishi, maʼno torayishi kabi xarakterli jihatlari, ularning soʻzlar semantik strukturasidagi mushtarak hamda leksik va hosila maʼnolarning paydo boʻlishidagi farqli tomonlari, tarixiy rivoji arxaizmlaning oʻziga xos xususiyatlari qadimgi turkiy til hamda eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar asosida dalillangan;

manbada ifodalangan istilohlarning oʻz va oʻzlashgan qatlamlar boʻyicha tahlili asosida oʻzbek tili soʻz boyligi hamda grammatik qurilishining tarixiy rivojlanishida turkiy qoʻshimchalar vositasida soʻz yasash usuli muhim oʻrin tutgani arabcha va fors-tojikcha oʻzlashmalardan yangi leksemalar hosil qilishdagi faol ishtiroki asosida isbotlangan;

“Mahbub ul-qulub” asari leksikasidagi polisemiya, maʼno torayishi va maʼno kengayishi, koʻp maʼnolilik singari turkiy tillarga xos hodisalar, koʻpgina narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakat-holatlar maʼno koʻchishi yordamida nomlanishi, koʻchim va uning turlari (metafora, metonimiya, sinekdoxa), leksik-semantik jarayon (omonim, sinonim, antonim)lar Alisher Navoiy asarlari tilining ifoda imkoniyatlari, badiiy qudrati, semantik mundarijasini koʻrsatuvchi oʻziga xos lisoniy omillar ekanligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Mahbub ul-qulub” asaridagi soʻzlar funksional-semantik, tarixiy-etimologik va leksik-semantik jihatdan oʻrganish natijasida olingan xulosalar leksemalarning maʼno taraqqiyotini ochib berish, til tarixi bilan aloqador lisoniy hodisalarni

sharhlash, adabiy tilning shakllanish va rivojlanish bosqichlariga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan dalillangan;

pandnomada qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, madaniy, diniy, maishiy, kasb-hunar, jug‘rofiy sohalarga oid leksik birliklar, o‘z navbatida, xalqimizning o‘sha davrdagi hayoti, turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, an‘analari, jamiyat va til tarixi hamda tilning qadimiy holatidan boxabar bo‘lishda, yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan;

tadqiqot natijalari istiqbolda leksikologiya, terminologiya, dialektologiya, frazeologiyadagi leksik-semantik jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganish, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, tarixiy, etimologik, frazeologik va izohli lug‘atlar yaratish uchun manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi isbotlangan;

tarixiy leksikologiya haqidagi yangi ma‘lumotlarning aniqlanishi, “Mahbub ul-qulub” asari lug‘at tarkibining tadqiq etilishi, XV asr uchun xarakterli bo‘lgan til masalalarining yoritilishi filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislari uchun zarur material vazifasini o‘tashi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma‘lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, qo‘yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, tadqiqot natijasida chiqarilgan fikr hamda xulosalarning amaliyotga joriy etilgani va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, amalga oshirilgan izlanishlar dunyo tilshunosligining yangi yo‘nalishlari va qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, komponent tahlil metodlari vositasida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy qarashlar turkiy tillar takomili, xususan, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asariga xos lingvistik xususiyatlar yaxlit tarixiy aspektda monografik planda ilk bora tizimli tarzda tadqiq etilgani, nazariy xulosalar pandnoma leksikasidagi semantik o‘zgarishlar, paradigmatic munosabatlar, lisoniy hodisalar mohiyatiga tayanib chiqarilgani, o‘zbek adabiy tilining shakllanish hamda taraqqiyot bosqichlari xususida mavjud fikr va mulohazalarni muayyan darajada oydinlashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi xulosa va materiallaridan oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan “O‘zbek tili tarixi”, “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek dialektologiyasi”, “O‘zbek terminologiyasi”, “Davlat tilida ish yuritish” singari mutaxassislik fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar, turli sohalarga doir izohli lug‘atlar yaratishda, ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlari mazmunini to‘ldirishda, Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlari, badiiy va lingvistik mahoratiga oid maxsus kurs hamda seminarlar tashkil etishda, o‘zbek tilining qo‘llanish ko‘lamini kengaytirish, lug‘at tarkibini o‘zbekcha so‘zlar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari leksikasi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tarixiy leksikologiyaning nazariy qoidalariga tayangan holda pandnomadagi soʻzlar ijtimoiy-siyosiy, maishiy leksika, taʼlim-tarbiya, teonimlar, zoonimlar, fitonimlar kabi oʻttiz toʻrtta yirik mavzuiy guruhga ajratilib asarning oʻzbek tili tarixiy taraqqiyoti va adabiy til sifatida shakllanishida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, oʻzbek xalqining moddiy-maishiy turmush tarzi, turar joy, uy-roʻzgʻor tutumi, diniy, madaniy-maʼnaviy, iqtisodiy jihatlarning oʻrni bilan bogʻliq ilmiy-nazariy xulosalardan AM-Φ3-201908172 raqamli “Oʻzbek tilining taʼlimiy korpusini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yilning 12-oktabrdagi 01/10-2111-son maʼlumotnomasi). Natijada oliy va umumtaʼlim muassasalari tizimida tarixiy terminlar, istorizm, arxaizmlarni aniqlash, soʻzlarni lugʻat tarkibiga boʻlish, ularning etimologiyasini yoritish, omonimlarni farqlash, soʻzlarning maʼno taraqqiyotini ochish kabi masalalarga oydinlik kiritib, lingvistik tahlillar mazmunini boyishiga erishilgan;

pandnoma lugʻat boyligidagi soʻzlarning genezisi, manba tilining maʼno kengayishi, maʼno torayishi kabi xarakterli jihatlari, ularning soʻzlar semantik strukturadagi mushtarak hamda leksik va hosila maʼnolarning paydo boʻlishidagi farqli tomonlari, tarixiy rivoji arxaizmlarning oʻziga xos xususiyatlari qadimgi turkiy til hamda eski turkiy tilning dastlabki yodgorliklarida qayd etilgan leksik birliklar asosida dalillanganligiga doir ilmiy xulosalardan A-OT-2019-10 raqamli “Oʻzbek tilida neyningning meʼyoriy-huquqiy asoslarini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 12-oktabrdagi 01/10-2114-son maʼlumotnomasi). Natijada elektron platforma yaratishda tarixiy leksikologiya, til madaniyati, nutq odobi, taʼlim-tarbiya borasidagi qarashlar va ularni anglatuvchi leksemalar, shuningdek, mazkur atamalarning funksional-semantik hamda genealogik tomondan oʻrganish uchun zarur boʻlgan materiallar muhim ilmiy manba vazifasini oʻtagan;

“Mahbub ul-qulub” asari leksikasidagi polisemiya, maʼno torayishi va maʼno kengayishi, koʻp maʼnolilik singari turkiy tillarga xos hodisalar, koʻpgina narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakat-holatlar maʼno koʻchishi yordamida nomlanishi, koʻchim va uning turlari (metafora, metonimiya, sinekdoxa), leksik-semantik jarayon (omonim, sinonim, antonim)lar Alisher Navoiy asarlari tilining ifoda imkoniyatlari, badiiy qudrati, semantik mundarijasini koʻrsatuvchi oʻziga xos lisoniy omillar ekanligiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasining “Til – millat koʻzgusi”, “Kun mavzusi”, “Maʼnaviyat saboqlari”, “Dialog” koʻrsatuvlarida foydalanilgan (Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasi 2023-yil 14-noyabrdagi 01-01\204-son maʼlumotnomasi). Natijada asardagi fikr-mulohazalar, barkamollikka erishish, komil inson tarbiyasiga doir aql-zakovat durdonalari millatimizni asrlar osha tarbiyalab kelgan odob, turish-turmushning mazmun-mohiyatini anglashda muhim ekanligini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan, koʻrsatuv ilmiy-maʼrifiy saviyasining yuksalishini taʼminlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 17 ta ilmiy, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, jumladan, xorijiy jurnallarda 4 ta, respublika jurnallarida 6 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlarga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Mahbub ul-qulub” asari leksikasining funksional-semantik xususiyatlari**ga bag’ishlanadi. Funksional-semantik maydon termini maydon tushunchasining lisoniy hodisa ekanligiga ishora qilish bilan birga, uning mohiyatini ham o’zida nisbatan to’liqroq aks ettiradi⁵. Manba leksikasi ko’lami, qo’llangan leksik birliklarning qamrovi nuqtayi nazardan o’ttiz to’rtta semantik guruhlarni o’z ichiga oladi. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o’tamiz:

1. Antroponimlar: *Ādam, Muhammad* (s.a.v.), *Sulaymān, Fir’avn, Namrud, Muqbil, Šayx Fariduddin Attār, Amir Xusrav Dehlaviy, Masih* – Iso payg’ambarning sifati, *Mahmud* — Muhammad payg’ambar (a.s.)ning laqabi, *Ruh ul-amin* — Jabroil (a.s.)ning laqabi, *Šāh Abulġāziy* — Husayn Boyqaroning laqabi.

2. Kishilarga nisbatan qo’llanuvchi so’zlar: *ādam, kiši, kim, dost, yār* – “do’st”, *dušman, ortaq, qoldaš* – “hamroh, o’rtoq”, *āšnā, habib*.

3. Inson tana a’zolari nomlari: *bel* – “bel”, *ayaq* – “oyoq”, *ilik* – “qo’l”, *yüräk, koz, qulaq, avuč, qaš, egin, uča, tiš*.

4. Qavm-qarindoshlik, yaqinlikni anglatuvchi so’zlar: *uruğ* – “urug’”, *qayaš* – “qarindosh”, *avlād* – “nasl”, *abnā* – “фарзандлар, авлод”, *ata, oğul, ana, egāci* – “opa”, *siñil, xāla*.

5. Yosh tushunchasi bilan aloqador leksemalar: *yaš* – “yosh”, *šabāb* – “yoshlik”, *yigit, abušqa* – “keksa, qari”, *qari, uluğ yašliğ, kičik yašliğ, yigitlik*.

6. Jinsiy tafovut tushunchalari: *xatun, ayal, er, qiz, oğul, nāqa* – “urg’ochi tuya”, *nārtuya* – “erkak tuya”; *tavuq* – “tovuq”, *tañ quši* – “xo’roz”.

7. Kishilarning qo’li bilan yaratilgan narsa-predmet nomlari: *köñlāk* – “ko’ylak”, *börk, tunbān* – “ishton”, *kapanak* – “darveshlar kiyimi”, *munčağ, čöčäk* – “sapol obdasta”, *sāğar* – “may qadahi”, *burunjak* – ro’molcha.

⁵Элмуратова Л. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони). Филол. фан. номз... дисс. –Тошкент, 2011. – Б. 26.

8. Yegulik va ichimliklar: *ötmäk* – “non”, *aš* – “ovqat”, *suv*, *may*, *bāda* – “may”, *sut*, *šarāb*, *un*, *ümäč* – taom nomi.

9. Kasb-hunar nomlari: *qaraqçı*, *yalğançı ayalğuçı* – “ashulachi”, *čerikčii*, *oraqçı*, *bašaqçı*, *itmäkči* – “navvoy”, *qušči*, *bavarči* – “oshpaz”.

10. Etnonimlar: *isrāil*, *arab*, *türk*, *juhud*, *barlas*, *sart*, *fārsiy*, *qurayš*.

11. Tibbiyotga oid tushunchalar: *mariz* – “bemor”, *maraz* – “bemorlik”, *tabib*, *zahm* – “yara, jarohat”, *yara*, *telbā*, *guñ*, *xasta*, *bemār*, *hakim*, *jarāhat*.

12. Musiqa bilan bog‘liq leksemalar: *ğijjak*, *ud*, *nay*, *čağāna* – “musiqa asbobi”, *qānun* – “musiqa asbobi”, *tanbur*, *nāla*, *rubāb*, *qobuz*, *čaṇ*.

13. Mavhum tushunchalar: *gunāh*, *hunar*, *tüš*, *ābro*, *ārzu*, *mehr*, *qahr*, *baxt*, *aql*, *zavq*, *išq*, *fikr*, *anduh*, *lutf*, *falākar*, *vafā*, *iztirāb*, *hayā*, *ğam*, *ğaraz*.

14. Ijtimoiy-siyosiy istilohlar: *yurt*, *kent*, *ulus*, *kišvar* – “davlat, viloyat”, *yasaq* – “qaror, tartib”, *buyruq*, *oğri*, *fāsiq*, *xan*, *hākim*, *vazir*, *sadr*, *daruğa*.

15. Savdo-sotiq bilan aloqador leksik birliklar: *savdā*, *asiğ* – “foйда”, *bürč* – “qarz”, *ulufa* – “maosh”, *ağir* – “qimmat”, *oğay* – “arzon”, *savdāgar*.

16. Diplomatik leksika: *qāsid* – “chopar, xabarchi”, *munādi* – “jarchi, hudaychi”, *xabar*, *qabul*, *himmat*, *iltifāt*, *ixtilāt* – “munosabat, aloqa”, *fitna*, *ādāb*, *axlāq*, *xiyānat*.

17. Soliq va boj tushunchalarini anglatuvchi so‘zlar: *xirāj*, *zakāt*, *ülüš*, *nasib* – “ulush”, *zakātči*.

18. Harbiy leksika: *bek*, *pāsbān*, *yasavul*, *čuhra* “soqchi”, *čerik* – “qo‘shin”, *ğazva* – “urush”, *aduv* – “dushman”, *qalqan*, *qilič*, *nayza*, *oq*.

19. Kitobatchilik terminlari: *kitāb*, *nāma*, *maktub*, *daftar*, *xat*, *varaq*, *tumār* – “noma, xat”, *xāma*, *siyāh*, *kilk* – “qamish qalam”, *kātib*, *naqqāš*.

20. Geografik obyektни ifodalovchi leksemalar: *sol* – “chap”, *oñ* – “o‘ng”, *zamharir* – qahraton qish, *tag*, *tüz* – “tekislik”, *yazı* – “cho‘l”, *čašma*, *köl*.

Bobda ushbu semantik guruhlarining asarda qo‘llanish darajasiga qarab ijtimoiy-siyosiy, maishiy leksika, teonimlar, zoonimlar, fitonimlar kabi fasllarga bo‘linib, mazkur leksik qatlamga doir so‘zlar diaxron aspektida o‘rganildi. Jumladan, “o‘lka, yer, mamlakat” ma‘nosini **yurt** leksemasi anglatgan: *Išäläri talay alğanni talamaq, yat yurtida čügürtkädek sabza va yafraqini yalamaq* (MQ,15). Bu ijtimoiy-siyosiy atama dastlab To‘nyuquq bitigtoshida “turar joy, yer” ma‘nosida kelgan: *Usin buntatu yurtida yatu qalur erdi* – Usin buntatu yurtida yotib (yashab) qolar edi. “O‘g‘uznoma” dostonida “mamlakat”ni bildirgan: *Bedük bir yurt el kün erdi* – buyuk davlat va katta xalq (DTS,282). “Boburnoma”da “makon, joy”, “mamlakat”, “harbiy qarorgoh”, “manzil”⁶ semalarini ifodalagan. Bu ot qadimgi turkiy tilda “bir joydan ikkinchi joyga harakatlan-” ma‘nosini anglatuvchi **yorы** fe‘lining **yur-** shaklidan –t qo‘shimchasi orqali yasalgan (O‘TEL,I,188). Ayni paytda, asarda o‘rganilayotgan so‘zning arabcha **davlat**, **mamālik**, **mulk**, fors-tojikcha **kišvar** sinonimlari ham ko‘zga tashlanadi: *Muvāfiq tüšsä kadbānu, davlat va jamiyatğa bolmaqdurur hamzānu* (MQ,33); ...*mamālikka mujibi amniyat va rafāhiyat* (MQ,10); *mulk ahli bašığa altun bilä durlär saçar* (MQ,10); *Endikim, ul kišvarni tasxir qıldı* (MQ,50).

⁶Холманова З. “Бобурнома” – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 225-226.

Tejri teonimi “butun borliq, barcha jonli-jonsiz mavjudotlar yaratuvchisi” ma’nosida qo‘llanilgan: *...tariqati mašāyix istilāhātida vusul ahlidūrlār, bularnī tājriga āšiq desā bolur* (MQ,53). Qadimgi turkiy tilda tājri so‘zi ikki ma’noda ishlatilgan: “ulug‘ tangri, xudo”; “ko‘k, osmon”⁷. Bundan tashqari, “Oltun (tusli) yorug‘” yodgorligi va Yenisey bitigtoshlarida leksemaning “hukmdor, janob”, “diniy” semalari kuzatiladi: *Bu sabiğ ešitip, men ötrü olarqa inča tep tedim aya edgülārim tājrilārim* – bu so‘zni eshitib, ularga shunday dedim: ey mening yaxshilarim, hukmdorlarim!; *Tājri elikkā elčisi ertim* – men diniy qabilalar uyushmasining elchisi erdim (DTS,544). Asarda tadqiq etilayotgan so‘zning arabcha **Allāh**: *Ālim kerākkim, mutaqqiy bolsa va āgāh va ayturğā qāla Allāh, qāla Rasullāh* (MQ,18); **Ilāh**: *Ilāhi, bizgā tavfiqiy birlā hamrāhliğ ber* (MQ,53); **Haq**: *Ādil pādšāh haqdīn xalāyiqqa rahmatdur* (MQ,10); forsiy **Xudā**: *Xudā sözi yoq esā, Mustafā sözi* (MQ,19); **Yazdān** ma’nodoshlari ham keltirilgan: *Zuhdu fisq elgā taqdiri Yazdāndīndur* (MQ,74). Shuningdek, asarda xudoning sifatlarini bildiruvchi boshqa so‘zlar ham qo‘llanilgan: **Rab** (ega, xoja), **Xāliq** (yaratuvchi), **Jabbār** (bandalari ishini isloh etuvchi), **Zuljalāl** (sharafli), **Rahmān** (mehribon), **Rahim** (rahmli), **Karim** (karamli), **Ğaffār** (kechiruvchi) va hokazo.

Tadqiqot obyekti qilib olingan yodnomada **ayaq/ayağ** so‘zi “qadah, jom” tushunchasini ifodalagan: *Nāmus dastārīn bašidīn alīb, bir, jur’a üçün mayfuruš ayağiğā salīb* (MQ,35). Berlin to‘plamidan joy olgan uyg‘ur yozuvidagi manbalar hamda XI asr yodgorliklarida **ayaq** varianti zikr etilgan semani anglatish uchun xizmat qilgan: *Bu ayaqnīn yaruqi bar* – bu qadahning yoriqi bor (DTS,27). Ushbu so‘z qadimgi turkiy tildagi “o‘yilgan joy” ma’nosini bildirgan **ağ** otining **ay** shaklidan “kichik” semasini ifodalovchi **-(a)q** qo‘shimchasi bilan hosil qilingan degan ko‘z qarash yo‘q emas (O‘TEL,1,250). Ayni paytda, hazrat Navoiy turkiy **sağar**, arabcha **qadah**, **surāhiy**, fors-tojikcha **jām**, **paymāna**, **kāsa** istilohlarini mazkur leksemaga sinonim tarzida ishlatgan: *Bir sog‘ar may bergan...*(MQ,58); *Bir qadah noš içirgāndin ayaq - ayaq zahrğā özni āmāda tutmaq kerāk* (MQ,38); *surāhiydek baš qoyar yeri sağar qašida* (MQ,35); *...ičmāki anīn šarbatxānasi jāmidīn...*(MQ,39);

“Mahbub ul-qulub” asarida zikr etilgan zoonimning arabcha **asad** (MQ,49), fors-tojikcha **šer**, **ğazanfar** terminlari sinonimik qatorni tashkil qilgan: *Agar allida šeri jayān yüzlānsā...*(MQ,47); *...nazm pešasiniğ ğazanfari va dardu išq ataškadasiniğ samandari...*(MQ,51).Navoiy asarlari tilida **gul** shu ma’nodagi yagona so‘z emas, “gul” ma’nosini umumturkiy **čečäk** fitonimi ham ifodalagan: *Quyaš bilā abri bahārdek qara tufragdīn gullar ačar* (MQ,10); *Yafrağni ipāk qilur, čečäk bargini bāl* (MQ,77). **Čečäk**ni ilk bor Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida, **gul** (DTS,195) o‘zlashmasini esa dastlab Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida uchratamiz: *yelik kulmuz o‘ynar chechaklar uza* – yovvoyi echki va takalar chechaklar uzra o‘ynar (DTS,143). Shuningdek, obyekt qilib olingan manbada **gul**ning grammatik ko‘plik (“gullar”) ma’nosida turkiy **čaman** (MQ,29), arabcha **ağlāl** (MQ,28), fors-tojikcha **gulistān** (MQ,6), **gulšan**

⁷Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. –Б. 181. Қаранг: Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуфий лексикасининг систем тадқиқи. Филол. фан. док. (DSc)...дисс. автореф. –Тошкент, 2021.

(MQ,44), **bostān** (MQ,7) istilohlari ham qoʻllangan.

“**Mahbub ul-qulub**” asari soʻz boyligining genealogik tahlili” nomli ikkinchi bobda oʻz va oʻzlashgan qatlamga oid birliklar oʻrganilgan. Bunda tub turkiy soʻzlar, ularning qadimgi turkiy tili, eski turkiy tili, hozirgi oʻzbek adabiy tili va uning shevalariga munosabati, turkiy soʻzlardan yasalgan leksemalar, oʻzlashmalarga turkiy affikslar qoʻshish orqali hosil boʻlgan soʻzlar, shuningdek, arabiy, forsiy, sanskrit, sugʻd, xitoy, yunon, moʻgʻulcha istilohlar tahlilga tortilgan

Qadimgi va eski turkiy tilga munosabat. Asar tilidagi turkiy soʻzlarning muayyan qismini qadimgi, eski turkiy til manbalarida uchratishimiz mumkin. Jumladan, asarda **abuʻsha** leksemasi “keksa, chol” semasiga ega: *Yaman tillik bolsa, abuʻsha kōnli andin yaraliḡ* (MQ,33). Atama qadimgi turkiy va eski turkiy til obidalarida **awinčga** (DTS,70), **awičga** (DTS,69), **awučqa** (DTS,3), **awučga** fonetik shakllarida qayd etilgan: *Söküş boldi erkä awučga atı* – avuchqa erkaklar oʻrtasidagi munosabatda haqorat soʻzi boʻldi (DTS,70). Shu bilan birga, obidada bu soʻzning **qarī** sinonimi qoʻllanishda boʻlgan: *...besaādat qarīniḡ ilgidin xud heč iḡ kelmäs* (MQ,63).

Hozirgi oʻzbek adabiy tiliga munosabat. Alisher Navoiy istifoda qilgan qarindoshlik, inson tana aʼzolari, zoonimlar, vaqtni ifodalovchi birliklar, sonlar, maishiy, ijtimoiy-siyosiy leksemalar, harakat-faoliyat, belgi-xususiyatni bildiruvchi soʻzlarning koʻpchiligi bugun adabiy tilimizda ayni shakl va maʼnoda qoʻllanib kelmoqda. Masalan, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida **az-** “toʻgʻri yoʻldan adashmoq” maʼnosida ifodalangan: *Takabbur libasın keyib az salin*. Ushbu soʻz ilk bor Turfon matnlarida ayni maʼnoda keltirilgan: *Yol azsar ew tapmaz* – yoʻldan adashgan kishi uyini topa olmas (DTS,72). Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asarida “yoʻldan chiqmoq”, “adashmoq” maʼnolarida uchraydi: *Azip yügrür erdim ayu berdi yol* – yoʻldan adashib yurar edim, tangri yoʻl koʻrsatdi; *kōniliktä azmiš özüüm* – men haqiqat yoʻlidan adashdim (DTS,72). Ushbu feʼl tadqiq qilinayotgan manba va hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham dastlabki maʼnosida koʻzga tashlanadi: *Tā qaysi ariḡ tiynatliḡ yoldin azmiš bolḡay* (MQ,37); Egri-ozadi, toʻgʻri-oʻzadi (OʻTIL,II,98).

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida qoʻllanmaydigan turkiy soʻzlar. Leksema ifodalagan tushunchani anglatuvchi boshqa soʻzning shakllanishi natijasida (u ichki imkoniyat asosida yasalgan yoki olinma leksema boʻlishi mumkin) uning isteʼmol doirasi toraya boradi. Bir qator semalari bilan faol qoʻllangan soʻzlar semantikasida torayish kuzatiladi. Keng qoʻllanilmagan leksemalar isteʼmoldan chiqadi, arxaizmga aylanadi. Bu jarayon tilning ichki qonuniyati asosida yuz beradi⁸. Aytish joizki, “Mahbub ul-qulub” asarida qoʻllanishda boʻlgan bir qator leksik birliklar zarur turli yangi soʻzlar paydo boʻla borganidek, turmush uchun keraksiz soʻzlar sifatida bugun isteʼmoldan chiqib ketgan. Ular jumlasiga quyidagi soʻzlarni kiritish mumkin: *tüz* – toʻgʻri; aynan, bir xil, *ilik* - qoʻl, *abuʻsha* - keksa, *ayaḡ* - qadah, *bürünjäk* - roʻmol, *yaḡliḡ* – roʻmol, *ötmak* – non, *bürč* – qarz, *aḡir* – qimmat, *qamḡaq* – oʻsimlik, *bilig*, *čerik* – qoʻshin, *ayalḡuçi* - ashulachi, *itmäkci* – navvoy, *asiḡ* – foyda, *ariḡ* – toza.

⁸ Дадабоев Х., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. –Т.: Фан, 2008. –Б. 116.

O‘zbek shevalarida ishlatiladigan so‘zlar. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida **ötrük** so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: *ötrük – hiylagar, aldanchi, ayyor, yolg‘onchi: Ötrük ötün ağrılayu yüzgä baqar, Elkin taşub bermiş aşığ başqa qaqar.* Erlarning hiylakori, pastı, baxılı qoldı, mehmon uning oldida o‘g‘ridek ko‘rinadi, musofir mehmonga yeydigan narsani minnat qilib, bergan narsasi bilan mehmonning boshiga uradi (qoqadi) (MK,I,82). Leksik birlik “Mahbub ul-qulub” asarida “yolg‘on” ma‘nosini anglatgan: *Öz söz hamki ötrükdür zahri muhlikdür — agarçi miqdāri öksükdür* (MQ,70). Hozirda mazkur so‘zning Qirg‘, Qo‘ng‘irot shevalarida **ötryrk//ötryk//yötrik**, Surxondaryo, Qo‘ng‘irot shevalarida **ötrik** fonetik variantlari “yolg‘on” ma‘nosini anglatishi “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da e‘tirof etilgan: *ötrik sölləmә, adam bolaman desәh* (O‘XSHL,55).

Turkiy so‘zlardan yasalgan leksemalar. Tilda affiksatsiya yo‘li bilan yangi so‘zlar hosil qilish eng faol usullardan sanaladi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, asar so‘z boyligida ham tub o‘zakdan turkiy qo‘shimchalar vositasida yasalgan leksemalar mavjud:

1) -či/-çi affiksi vositasida ot, fe‘llardan kasb-kor, yumush egasi ma‘nosini anglatuvchi leksemalar hosil qilingan: qaraqçı – çerikçi – “askar” (<čerik – “lashkar”), itmäkçi – “nonvoy” (<ötmäk// Itmäk– “non”);

2) -liğ/-lig//liq/-lik//luğ/-lüg//luq/-lük affiksi ishtirokida asosan, ot, sifat, fe‘ldan o‘zi qo‘shilgan o‘zakdan anglashilgan narsaga egalik ma‘nosini bildiruvchi mavhum otlar hamda kasb-hunar, mansab, holat, munosabat, aloqadorlik semalarini ifodalovchi so‘zlar hosil qilingan: erlik – “mardlik” (<er – “er, mard”), yasağliq – “hukm yurituvchi” (< yasaq – “tartib, qonun”);

3) -k//uq/ük//uğ/üg//aq/ağ//iğ//ig//iq/ik affiksi fe‘ldan harakat natijasini, holatini, joy va qurolini anglatuvchi ot yasagan: pıçaq – “pichoq” (<bıç – “kesmoq”), emgäk – “qiyinchilik” (<emgä – “zahmat chekmoq”), sürük – “to‘da, guruh” (<sür- – “haydamoq, quvmoq”);

4) -ğuçi/-guçi (-ğu/-gu+çi/çi) affiksi fe‘ldan shaxs oti yasagan: iltırağuçi – “yiltirovchi” (<iltıra- – “yaltiramoq”), bitğuçi – “bituvchi” (<bit- – “bitmoq”), yedürguçi – “yedirguchi” (<yedür- – “yedurmoq”), yetkürguçi – “yetkazuvchi” (<yetkür- – “yetkurmoq”), küydürguçi – “kuydiruvchi” (<küydür- – “kuydirmoq”);

5) -siz/-siz//suz/-süz ot, sifat va olmoshlardan sifat yasagan: ayağsiz – “oyoqsiz” (<ayağ – “oyoq”), arığsiz – “nopok” (<arığ – “toza”), mensiz – “mensiz” (<men – “men”), yüräksiz – “yuraksiz” (<yüräk – “yurak”);

6) -ğ/-g//q/-k//iğ/-ig//iq/ik//uğ/-üg//uq/ük affiksi fe‘ldan o‘zakdan anglashilgan ma‘noga taalluqli belgi xususiyatiga egalik tushunchasini bildiruvchi sifat hosil qilgan: arığ – “toza” (<arı- – “toza bo‘lmoq”), artuq – “ortiq” (<art- – ortmoq, “oshmoq”), yaruq – “yorug‘” (<yaru- – “yorishmoq”), qızıq – “issiq”;

7) -la/-lä affiksi asosan otdan ishning o‘zakdan anglashilgan predmet vositasida bajarilishi, muayyan holat va belgiga ega bo‘lish kabi ma‘nolardagi fe‘llar yasaydi: bağla- – “bog‘lamoq” (<bağ – “bog‘”), başla- – “boshlamoq” (<baş – “bosh”), tañla- – “hayron etmoq” (<tañ – “hayrat”), yüklä- – “yuklamoq” (<yük – “yuk”);

8) -lan/-län qo‘shimchasi bilan otdan yasalgan fe‘llar o‘zakdan anglashilgan holatga o‘tish, shunga ega bo‘lish singari ma’nomalarni ifodalaydi: baġlan- – “bog‘lanmoq” (<baġ – “bog”), yuzlän- – “yuzlanmoq” (<yüz – “yuz”);

O‘zlashmalardan turkiy qo‘shimchalar orqali yuzaga kelgan so‘zlar. “Mahbub ul-qulub” asarida forsiy va arabcha so‘zlar turkiy qo‘shimchalar yordamida bir qator leksemalarni hosil qilishda ishtirok etgan. Asarda quyidagi turkiy affikslar vositasida forsiy va arabcha leksemalardan yangi so‘zlar yasalgan:

-liġ/-lig//liq/-lik//luġ/-lüg//luq/-lük affiksi o‘zlashmalardan o‘zi qo‘shilgan o‘zakdan anglashilgan narsaga egalik ma’nosini bildiruvchi mavhum otlar yasagan. Ayni paytda, bu qo‘shimcha kasb-hunar, mansab, holat, munosabat, aloqadorlik semalarini ifodalovchi leksemalar hosil qilishda ham qatnashgan.

a) forsiy so‘zlardan yasalgan leksemalar: gunāgunliġ – “rang-baranglik”, kāmṛānliġ – “maqsadga erishganlik”, xudparastliġ – “boshqani tan olmaslik”, xudārāliġ – “shuhratparastlik”, nāhamvārliġ – “nomutanosiblik”, kadxudāliġ – “boshliqlik, hukmronlik”; berāhliġ – “yo‘lsizlik, gumrohlik”;

b) arabcha o‘zlashmalarga qo‘shilish orqali hosil qilingan so‘zlar: hākimlig‘ – “hokimlik”; masrurlig‘ – “shodlik”; vāqifliġ – “xabardorlik”; razzāqliġ – “rizqlantiruvchilik”; qassāmlig‘ – “ulashuvchilik”; šarābliġ – “kayf berishlik xususiyati”; mahbubliġ – “sevimlilik”; iqtidārliġ – “qodirlik”;

-liq/-lik//liġ/-lik//luġ/-lüg affiksi o‘zlashgan so‘zlarga qo‘shilib, o‘zi birikkan predmetga egalikni, unga tegishli ekanligini, unga mos kelishini bildiruvchi sifat leksemalarni yasagan: zanjirliq – “andozali”; zaxmliq – “jarohatli”; niqlik – “baholi”;

-siz/siz/suz/-süz. Mazkur affiks asosan o‘zlashma otlarga qo‘shilib, o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlarni hosil qiladi:

1) forsiy so‘zlar bilan birikib sifat yasaydi: gunāhsiz – “noumid”; dastyārsiz – “himoyachisiz”; sarvarsiz – “yetakchisiz”; kafšsiz – “kovushsiz”;

2) arabcha o‘zlashmalarga qo‘shilib sifat hosil qilgan: xabarsiz – “ruxsatsiz”; asarsiz – “ta’sirsiz”; mahalsiz – “bemahal”; vaqtsiz – “bemavrid”; alamsiz – “g‘am- siz”; ġāyatsiz – “chegarasiz”; vāsitasiz – “vositasiz”;

Bundan tashqari, fors-tojik tilidan kirgan -be, -nā, -gāh, -zāda kabi affikslar arabcha va forsiy so‘zlardan yangi leksemalar hosil qilgan, biroq bunday o‘zlashmalar juda kamchilikni tashkil etadi: behisāb, bemadār, bebāk – “qo‘rqmas”, behangām – “noo‘rin”, nāšikeb – “besabr”, nāmavjud, nāmašru’ – “shariat qoidasiga xilof”, taxtgāh – “taxt qurilgan joy”, xilvatgāh, bazmgāh, manzilgāh, ġaniyzāda – “boyning bolasi”, gadāzāda, saidzāda, harāmzāda.

O‘zlashma leksik qatlam. Tabiiyki, chet so‘zlarning turli soha leksikasiga o‘zlashish darajasi ham har xil. Jumladan, harbiy terminologiya mo‘g‘ulcha so‘zlar hisobiga kengaygan bo‘lsa, ma’muriy, siyosiy, tijoraviy-moliyaviy, ilmiy, diniy leksika esa, asosan, arabcha, forsiy o‘zlashmalar orqali boyigan⁹.

Arabcha o‘zlashmalar. Ilmiy izlanishlar “Mahbub ul-qulub” asarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy hayot, din, ta’linga oid voqeliklarni yoritib

⁹Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Т.: Ёзувчи, 1991. –С. 133-134.

berishda arabcha istilohlardan keng foydalangan. Xususan, **davlat** o‘zlashmasi asarda quyidagi ma’nolarda qo‘llangan: 1) “davlat, saltanat”: *Šāh ešigi mundaq bekdin xāli bolmasun va davlatniñ andin özgā intiqāli bolmasun* (MQ,11); 2) “boylik”: *Davlatga yetkürgüvci teñri, ham alğuvci, ham bergüvci teñri* (MQ,14); *Ālam umrdek bevařādur va aniñ davlatiiga e’timād qilmaq xatā* (MQ,71); 3) “baxt”: *Rind va gadāgakim yetib bu iqbāl va davlat, šāhlarğa aniñ hālidin ārzu va hasrat* (MQ,35); 4) “kuch, qudrat”: *Beš kün bu dāri fanā tirikligigā masrur va davlatiiga mag‘rur bolmaq kerākdür* (MQ,87); 5) “davlat egasi, hukmdor, podsholik”: *Har sāhib davlatka bu āgahliğ bir vasila bilā yetibdür* (MQ,37). Leksema dastlab “baxt, omad” ma’nosida “Qutadg‘u bilig” dostonida ko‘zga tashlanadi: *Ya Rab üstā davlat tükäl qıl tiläk* – Ey xudo, baxti va tilagini butun qilgin (DTS,159). Ma’lum bo‘ladiki, tekshirilayotgan atamaning “boylik, mol-mulk”, “mamlakat” ma’nolari keyingi davr mahsuli hisoblanadi.

Fors-tojikcha o‘zlashmalar. Hazrat Navoiy tekshirilayotgan asarda **dilpazir** o‘zlashmasini “yoqimli” ma’nosida qo‘llagan bo‘lsa: *Başar jinsiga öz xatāsi dilpazirdur...*(MQ,76), **namudār** leksemasini bir necha ma’nolarda istifoda qilgan: 1) “zohir”: *Gunāh ahli tavqu zanjirğa giriftār, bu zanjiru tavqlari salāsil va ağlāldin namudār* (MQ,8); 2) “namuna”: *Baği jannatdin namudār, pālizada ruh quti padidār* (MQ,29); 3) “nishona”: *Kulāhi davlat ul davlatmandğa dastār va uzunraq alāqasi tülkü quy- ruqidin namudār* (MQ,34). “Ko‘ngilga ma’qul tushuvchi, ko‘ngilga yoqadigan, yoqimli; dilrabo” ma’nosidagi forscha-tojikcha **dilpazir** o‘zlashmasi *dil* otiga “kutib olmoq” semasini anglatuvchi *paziruftan* fe’lining *pazir* hozirgi zamon asosini qo‘shib hosil qilingan (O‘TEL,III,88).

Boshqa tillardan kirgan leksemalar. “Mahbub ul-qulub” asarida arabcha va fors-tojikcha o‘zlashmalardan tashqari sanskritcha (*pil, kāfur*), so‘g‘dcha (*bağ, ran*), xitoycha (*čañ*), yunoncha (*zumrad, daftar, diram,*), qadimgi yahudiycha (*Jabrāil, Isā, Nuh, Yusuf, Ayyub, Ya‘qub, Sulaymān*), mo‘g‘ulcha (*barlas, yasavul, daruğa, manlay*) so‘zlar ham istifoda etilgan, biroq ular juda kamchilikni tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Mahbub ul-qulub**” asari leksikasining **semantik-stilistik tadqiqi**”ga qaratilgan bo‘lib, unda polisemiya, ma’no kengayishi, ma’no torayishi, ko‘chim va uning turlari, ya’ni metafora, metonimiya, sinekdoxa hodisalari, omonimiya, sinonimiya, antonimiya jarayonlari yoritilgan.

